



UO‘K: 297.2:94(575.1):32

**ZAMONAVIY TARIQATCHILIKDAGI IJTIMOY-SIYOSIY MUAMMOLAR YECHIMIDA  
“MAKTUBOT” ASARINING AHAMIYATI****ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “МАКТУБАТ” В РЕШЕНИИ СОЦИАЛЬНЫХ-  
ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ СОВРЕМЕННОГО ТАРИКАТИЗМА****THE SIGNIFICANCE OF THE WORK “MAKTUBAT” IN THE SOLUTION OF SOCIAL-  
POLITICAL PROBLEMS IN MODERN TARIQAH****Mirzayeva Feruzaxon Ahmadjon qizi** 

Farg‘ona davlat universiteti Falsafa va milliy g‘oya kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada hozirda yangi paydo bo‘lgan soxta tariqatlar, ularning jamiyatni tashvishga solayotgan faoliyati, jumladan, ayrim nomunosib shayxlarning amaliyoti, muridlarining asossiz amallarga ovora qilinishi kabi holatlar muolajasi uchun allomaning “Maktubot” asari muhim ahamiyatga ega ekani asoslab berilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan raqs tushib zikr qilayotgan tariqatchi jamoalar faoliyatiga nisbatan “Maktubot” asarida naqshbandiya shayxlari raqs va samo‘ni joiz hisoblamaganliklari bayon etilgan.

**Аннотация**

В статье обосновано, что труд учёного «Мактубот» важен для освещения новых ложных тарикатов, их деятельности, вызывающей беспокойство в обществе, включая деятельность некоторых недостойных шейхов и вовлечение их мюридов в необоснованные практики. В «Мактубот» также подчёркивается, что шейхи Накшбанди не считали танцы и само допустимыми в связи с деятельностью тарикатских групп, распространяющихся в социальных сетях.

**Abstract**

In the article, it was proved that the scholar’s “Maktubat” is important for the treatment of newly emerging fake orders, their activities that worry the society, including the activities of some undeserving sheikhs and the indulgence of their murids in unreasonable actions. Moreover, in relation to the activities of religious communities that dance and chant, which are spreading on social networks, it is stated in the work “Maktubat” Naqshbandi, sheikhs did not consider sa‘mo and dancing permissible.

**Kalit so‘zlar:** Tasavvuf, Maktubot, shariat, tariqat, shayx, murid, zikr.**Ключевые слова:** Суфизм, Мактубат, шарият, тарикат, шейх, мюрид, зикр.**Key words:** Sufism, Maktubat, sharia, tariqah, sheikh, murid, dhikr.**KIRISH**

Jamiyatda axloqiy me‘yorlarga zid qarashlar paydo bo‘lib, omma orasida keng tarqalib ketisa, ular bilan bog‘liq nosog‘lom aqida va fikrlar ham asta-sekin avj oladi. Natijada, mazkur holatni ildizini aniqlash va uni bartaraf etish uchun uzoq muddatli tahlil va sa‘y-harakatlar talab etiladi. Ayni shu holat tasavvuf sohasida bugungi kunda ko‘zga tashlanmoqda. Sufiy va tasavvuf atamalari odamlar orasida tarqalgan bo‘lsa-da, ularning asl mohiyati va mazmunini oddiy odamlar, hattoki, ayrim ziyoli qatlam vakillari ham anglab etmagan. Bugungi kunda tasavvufni anglab etmagan insonlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- birinchi guruh insonlar tasavvufni butkul inkor qilib, uni bid‘at va halokatga eltuvchi yo‘l sifatida ko‘radilar. Tasavvuf yo‘lidagi insonlarni gumroh va zalolatda ayblaydilar;

- ikkinchi guruh tasavvufni qabul qiladigan, lekin uni to‘liq anglamagan insonlar. Ular tasavvufni shariatga tobe emas, deb tushunadilar. Ularning aqidasi ko‘ra, shariat va tasavvuf alohida-alohida yo‘l. Ushbu ikki guruh insonlar tasavvufni islom shariatiga aloqasi bo‘lmagan alohida mustaqil tariqat sifatida ko‘radilar. Aslida, bu qarash naqshbandiya-mujaddidiya tariqati nazariyotchisi Ahmad Sirhindiy (1564-1624) yashagan davrda keng avj olgan bo‘lib, hozir ham uchrab turadi. Ahmad Sirhindiy aynan shu masalani isloh qilish maqsadida, “Maktubot” asarini yozgan. Asarda aynan shu ikki masalaga e‘tibor qaratilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ahmad Sirhindiy ta'limotining yoyilishida uning shogirdlari ham katta hissa qo'shganlar. Xususan, allomaning shogirdlaridan biri shayx Muhammad Hoshim Kishmiyning "Barakot" ("Zubdatu-l-maqomot") nomli kitobida Ahmad Sirhindiyning tarjimai holi, nasl-nasabi, fiqh, tafsir, hadis ilmlariga alohida ahamiyat bergani, zohiriy ilmlarni egallashda ulkan yutuqlarga erishgani, ustoz Boqibilloh bilan uchrashuvi, xalifalari, shogirdlari, tariqatdagi faoliyati, islom dinining asosi va tamoyillari hamda tasavvuf ta'limotiga oid masalalarda yozgan maktublari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tahlil etilgan [1].

Hindiston va Pokiston olimlari, asosan, Sirhindiyning siyosiy va ijtimoiy faoliyatiga ko'proq e'tibor qaratganlar. Hindistonning etakchi olimlaridan Abul Hasan Ali Hasaniy Nadaviy, Muhammad Iqbol, Muhammad Abdulhaq Ansoriy, pokistonlik mashhur olim Mahmud Ahmad G'oziy izlanishlarida allomaning hayoti va faoliyati, u yashagan mo'g'ullar davridagi islomning holati, diniy-tasavvufiy masalalardagi qarashlari, islohotlari tarixiy-tahliliy yondashuv asosida tadqiq etilgan.

Turkiyalik tasavvufshunos Ahmet Hakseverning ilmiy tadqiqotida Ahmad Sirhindiy o'z maktublari orqali keng geografik hududda shogirdlar tarbiyalagani, tariqatni tanqidiy nigoh bilan taftish qilib, yot illatlardan isloh qilishi va yangilashi tufayli naqshbandiya tarixida eng muhim shaxsiyatlardan biri bo'lgani bayon etilgan[2].

Turkiyaning Islom tafakkuri instituti direktori, professor Mehmet Go'rmez, Xalqaro Imom Rabboniy Simpoziumida "Maktubot" haqida: "Imom Rabboniyning maktublari, aslida, o'z davridan ko'ra ko'proq kelajakka xitob qiladi. Ular o'z davridan ko'ra kelajakka atalgan maktublardir. Bunda siz Onadolidagi dindorlikning diniy va ma'naviy ildizlarida Ahmad Sirhindiyning ko'rasiz," – deb ta'kidlagan edi[3]. Turk shoiri, yozuvchi Najib Fozil (1904-1983) esa, "Maktubot" ikkinchi ming yillikka kirar ekan, ming bir fitnasi bo'lgan jamiyat, uning buzilmasligi uchun harakat qilgan – islom haqiqatining eng nozik jihatlari sayqallagan, tarqalish, tarqatilib, yo'q bo'lish, unutilishning eng so'nggi chegaralariga qadar har bir narsani diqqat markazida jamlay olgan va e'tibordan chetda qoldirmagan buyuk asardir" [4] deb qayd etgan. Usmoniylar davri mashhur olimlaridan, qadimgi "Madrasatul Mutaxassisin" mudarrislaridan Sayyid Abdulhakim Arvosiy (vaf. 1943 y.) esa, "Maktubot"ni shunday ta'riflaydi: "Alloh taoloning Kitobidan va Rasululloh alayhissalom hadislaridan keyin, islom kitoblarining eng afzali va eng foydalisi "Maktubot" asaridir" [5]. G'arb va Sharq olimlarining tadqiqotlarida keltirilgan ma'lumotlar o'sha davrdagi diniy, siyosiy va ijtimoiy vaziyat haqida yanada aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini berib, mazkur asarning ahamiyatini ilmiy tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, maqolada zamonaviy tariqatchilarni faoliyatini yoritishda taniqli mahalliy olimlardan H.Yuldashodjayev tadqiqotlarida keltirilgan tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tizimli, tarixiy davrlashtirish kabi metodlar va nazariy xulosalardan foydalanilgan. Hozirda yangi paydo bo'lib qolgan tariqatlar, ulardagi ayrim shayxlarning faoliyati, muridlarining asossiz amallarga muhtalo qilinishi kabi holatlar, Ahmad Sirhindiy davrida ham avj olgani, "Maktubot"da o'z aksini topgan. Shu bois ham asar o'z ahamiyatini hamon saqlab kelmoqda.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dunyodagi barcha tariqat vakillari Ahmad Sirhindiyning "Maktubot" asarini juda qadrlaydilar. Ayniqsa, naqshbandiya tariqatida bu kitob juda e'timodli muhim manbalardan hisoblanadi. "Maktubot"da diniy bid'atdan tozalashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, tasavvufning mohiyati sodda iboralar bilan keng sharhlab berilgan. Shu bilan birga, tasavvufga oid xato nazariyalarga ishonchli hujjat va dalillar bilan raddiyalar bergan. Xususan, shariat va tariqat bir-biridan ajralmas va bir manzilga olib boradigan yo'l ekanligi dalillar asosida isbotlab berilgan. Xususan, asarning 84-maktubida "Shariat hamda tariqat bir-biriga o'xshashligi bayon etilgan bo'lib, ijmol hamda tafsildan boshqa oralarida farq yo'qligi, tasavvufiy istilohlardan, jumladan, istidlol va kashf, g'oyiblik va shahodat tushunchalarining mohiyati yoritilgan. Shuningdek, ilm, hukm va shariatning boshqa jabhalari bayoni aks ettirilgan. Har qanday ilm va hukmlar ro'yobga chiqqandan so'ng jamiyat hayotida yuksak o'rin egallashi turli mavhum narsalarning oydinlashib, g'oyiblik holidan shohidlik maqomiga o'tishi mufassal yoritilgan. Haqu-l-yaqin maqomida valiylikning alomati bu maqomning ilmlari va maorifi, shariatning ilmlari va maorifiga muvofiq ekanligi ifodalangan. Tariqat yo'liga kirgan shayxlar ilm va unga amal qilish jihatidan biror ishni amalga oshirsa, ixlos bilan harakat qilishi ko'rsatib o'tilgan [6]. Bu bilan muallif shariat va haqiqatning ayro emasligi, haqu-l-yaqin darajasiga erishishning alomati – bu maqomning ilmlari va ma'rifatga ergashish ekanligini bayon etgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda tariqatdan saboq berishni da'vo qiluvchilar, shuningdek, piriga qo'l berib, o'zini sufiy hisoblaydigan soxta tariqatchilar ham paydo bo'lib qolgan. Soxta

## SIYOSAT

tariqatchilar deganda, tasavvufning faqat tashqi jihatlariga, marosimchilik, turli zikr majlislariga asosiy e'tiborni qaratib, uning falsafiy-irfoniy xususiyatlaridan bexabar faoliyat yuritayotgan, muayyan bir kishini pir deb sanab, uning etagidan tutuvchi, jamiyatning boshqa a'zolaridan chetlashib, pir xizmatini hayotdagi eng asosiy maqsad, deb biluvchi johil kishilar yoki jamoalar, guruhlar tushuniladi. Ular faoliyatida, shariat ahkomlaridan kelib chiqib, tasavvuf ta'limotida qabul qilingan tartib-qoidalardan chetga chiqish holatlari ham kuzatilmoqda. Buning sabablaridan biri, ulardagi mutaassiblik g'oyalarigina emas, tasavvuf tarixi, maqsadi va vazifalari to'g'risida ilmiy asoslangan, misol va faktlar bilan ibsotlangan tushuntirish ishlari etarli emasligidadir. Ba'zi zamonaviy tariqat vakillari o'z tariqatlaridagi ayrim harakatlari bilan kishilar e'tiroziga sabab bo'lmoqda. Ular ming yillar oldin shakllanib, muqaddas deb ulug'langan diniy ahkomlarimiz ildizlarini to'la-to'kis tushunmaydigan kishilar ongini zaharlamoqda. Xususan, pirning uyi tomoniga oyoq uzatish qiblaga oyoq uzatish kabi gunoh bo'lishi yoki shayx tahoratidan qolgan suvni tabarruk, deb ichishlik kabi masalalar aqlga sig'maydigan darajadagi xurofotning ko'rinishidir. Bunday amallar tariqat an'analari to'g'ri kelmaydi.

Zamonaviy tasavvuf oqimi vakillari tariqatlarida farz va tahajjud namozining o'qilishi haqidagi qat'iy fikrlar bor. Agar bandalarning xohishiga ko'ra, shariat ahkomlari o'zgartirilsa, unda shariatning ulug'ligiga shubha tug'iladi. Ahmad Sirhindiy maktublarida shariatning dolzarb masalalari, qalblarni poklash, tarbiyalash usullari ko'tarilib, shariat va tariqat munosabatlari, farzlarni ado etish, sunnat va odobga rioya qilish, farzlar turganda, nafl amallarga ortiqcha e'tibor bermaslik, xufton namozini tunning oxirida o'qishdan ogohlantirish, tahorat uchun ishlatilgan suvni ichishdan man qilish va muridlarning o'z pirlari yoki boshqaga sajda qilishdan qaytarish haqida so'z boradi. Buxorolik shayx Darveshga yozgan 42-maktubida Rasulullohning buyukligi, ular tomonidan aytilgan yo'l-yo'riq va ko'rsatmalarga chin dildan amal qilish lozimligi haqida fikrlar uchraydi. U zotga bo'lgan muhabbatni esa, bandalar sunnatga tobelik yo'li bilan qalbdan his qilishi lozimligi bayon etilgan.

Tariqatga kirgan kishiga ilmning shart emasligi va hatto, ilmni tark qilish afzalligi to'g'risidagi masala ham, ayni paytda, dolzarb. "Maktubot" asaridagi Ahmad Sirhindiyning Muhammad Boqibillohga yozgan 18-maktubida [7] sulukda yurish uchun ham ko'plab ilmlar zarurligi, bu ilmlar kishilarning mashaqqatli izlanishlaridan hosil bo'lganligi bayon etilgan. Jamiyatda talab etiladigan diniy va dunyoviy ilmlarni egallash lozimligi hayotiy misollar yordamida tushuntirilgan: "Quyidagi oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

"Har bir ilm egasi ustidan biluvchi bordir". (Yusuf surasi, 76-oyat). Bunda Alloh mukammal zot ekanligi ta'kidlangan.

Soxta shayxlar johil, ilmsiz sufiylar va botil tariqatlar tasavvufda qattiq tanqid ostiga olinadi. Ilm talab qilishni rad etuvchi "tariqatchilar" quyidagilarni dalil qilib keltiradilar: Avvalo, ilmning mohiyati ibodatga vosita bo'lishdir. U orqali inson Robbini taniydi va unga bandalik qilishga harakat qiladi. Modomiki, inson Allohga ibodat qilish yo'liga o'tgan ekan, unga ilmning keragi yo'q [8].

Bu soxta tariqatchilarning eng yanglish ko'rsatmalaridan biridir. Negaki, ilm faqatgina arab tilidan olingan "bilish – olamni anglash"gina emas, odamzotni eng oliy mavjudot ekanini, uning yashashdan maqsadini aks ettiradigan katta ahamiyat kasb etib, ikki dunyo saodatiga etaklaydigan bebaho in'om. Hatto Quroni Karimda ham ilmning buyukligi aks etilganligining isboti sifatida bu so'zning 765 marotaba tilga olinganligi ayrim tariqatchilarning ilmsizlikni targ'ib etgan qarashlarini inkor etadi. Hadislarda ham: "Yo rabbim, ilmimni ziyoda qil", – deb so'rang deyiladi. Ahmad Sirhindiy "Maktubot" asarining shayx Muhammad Chotiriyga yozgan 40-maktubida ilmning afzalligi, shariatning asosiy juz'laridan biri sifatida e'tirof etilishi bayon etilgan. Shuningdek, Sirhindiyning buxorolik mashhur shayx Farid Buxoriyga yozgan 48-maktubida esa, Alloh taolo ilm sohiblariga dushmanlarga qarshi kurashda yordamchi ekanligi, olimlar shariatning quvvati, Allohning fazliga erishgan buyuk kishilar sifatida tilga olinadi. O'sha davrlarda aytilgan bunday fikrlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Tariqatchilar faoliyatida islomga mutanosib kelmaydigan ba'zi bid'at va xurofotlar borki, ularni ilmiy asosda bartaraf etish zarur. Hozirgi kunda yurtimizda naqshbandiya ta'limotlari tarqalgan hududlarda, mavjud an'analarga zid ravishda, jahriy zikr amaliyotlarini o'tkazish holatlari uchramoqda. Ahmad Sirhindiyning "Maktubot" asarida naqshbandiya tariqatining ulug'lari jahriy zikrni inkor qilib, mahfiy zikrni buyurganliklari keltirilgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, maxfiy zikr jahriy zikr amaliyotidan afzal ekanligi A'rof surasi 205-oyatida: "Robbingizni

ichingizda tazarru va qo'rqinch bilan hamda gapirganda ovozni ko'tarmasdan erta-yu kech zikr (yod) eting", A'rof surasi 25-oyatida: "Robbingizga xufyona zikr qilinglar", deya dalillangan [9]. Ahmad Sirhindi muqaddas matnlardan dalillar asosida jahriy zikrning tariqatning asl tamoyillariga zid ekanini isbotlab bergan.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan raqs tushib zikr qilayotgan tariqatchi jamoalar faoliyatiga nisbatan "Maktubot" asarida naqshbandiya shayxlari raqs va samoni joiz hisoblamaganlari, shariatga zid ekanini bayon etilgan. Asarning 266-maktubida quyidagicha keltirilgan: "Samo va raqsni din va shariatga aylantirdilar, ular shayxlarining ishlariga tayandilar, o'zlarining itoatlari va ibodatlarini sifatida saqladilar". Ahmad Sirhindi bunday amallar tariqatning asl negiziga to'g'ri kelmasligini A'rof surasining 51-oyati: "Ular dinlarini o'yin-kulguga aylantirdilar", asosida dalillab bergan.

Shuningdek, Ahmad Sirhindi "Maktubot" asarining 29-maktubi Shayx Nizomiddin Tahonisriyga yo'llangan bo'lib, farzlarning bajarilishiga bag'ishlanadi. Bu maktub "Farzlarni ado etish, sunnat va odobga rioya qilish, farzlar turganda nafl amallarga ortiqcha e'tibor bermaslik, xufton namozini tunning oxirida o'qishdan qaytarish, tahorat uchun ishlatilgan suvni ichishdan qaytarish va muridlarning o'z pirlari yoki boshqaga sajda qilishlaridan qaytarish", – deb nomlangan. Ko'rinib turibdiki, Ahmad Sirhindi o'zining izdoshlaridan chiqishi mumkin bo'lgan masalalarni avvaldan bilganidek, ularning hammasini birma-bir sanab o'tadiki, bugungi kunda bizlarning diyorumizda mavjud bo'lgan tariqatchilarda aynan shu kamchiliklar uchraydi.

Mazkur maktubda Ahmad Sirhindi quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan: "Bilingki, insonni Allohga yaqin qiladigan amallar ikki qism: farz va nafl amallardan iborat. Farzlarning oldida naflarning hech e'tibori yo'qdir. Bir farzni o'z vaqtida bajarmoq, ming yil nafl ibodat qilmoqdan afzaldir. Bunda xolis niyat ila qilingan har qanday nafl, ya'ni namoz bo'lsin, ro'za bo'lsin, zikr yoki fikr bo'lsin – barchasi barobardir. Hattoki, farzlarni ado qilarkan, bu farzning sunnatlaridan bir sunnatga yoki odoblaridan bir odobga rioya qilmoq ham shu kabi fazilatga egadir.

Rivoyat qilishlaricha, "Hazrat Umar roziyallohu anhu, bomdod namozini jamoat bilan ado qilgach, jamoatga qarab as'hoblaridan birini ko'rmadilar:

– Falon kimsa jamoatga kelmadimi?, – dedilar.

– U kishi tunlarni nafl ibodatlar bilan o'tkazadi, ehtimol, shu onda uyqu g'alaba qilgandir, – deb javob berildi. Hazrat Umar:

– Agar tun bo'yi uxlab, bomdod namozini jamoat bilan ado qilsaydi, undan afzalroq bo'lar edi, – dedilar".

Asarda: "Kechani bedor o'tkazish uchun xufton namozini kechiktirish barcha ulamolar nazdida makruhdur. Vitr namozini biroz kechiktirsa ham, qiyomillayning savobini topadi. Qoldirilgan namozlarni esa, qazosini o'qish lozim bo'ladi. Imom A'zam Abu Hanifa al-Kufiy roziyallohu anhu tahoratning odoblaridan birini tark qilgani uchun qirq yillik namozini qayta o'qigan", – deyiladi.

Maktublardan ma'lum bo'ladiki, tariqat faqat zikrlar majmui emas, Qur'on va Sunnatga qat'iy amal qilishdir. Sirhindi bu qisqa umrga katta imkoniyat sifatida qaragan va undan unumli foydalanishni shogirdlariga tavsiya qilgan. Maktublarida umrning bir lahzasini ham behuda o'tkazmaslik kerakligi, o'zlarini o'tkinchi zavqlarga bag'ishlamay, umrlarini Alloh taoloning rizoligi yo'lida sarflashi lozimligi, qalbni poklash, shariat qoidalariga muvofiq ish yuritishni targ'ib etgan[10].

Ezgu amallar uchun eng yaxshi vaqt, shubhasiz, yoshlik davridir. Aqlli inson umrining shu davrini behuda o'tkazmay, bu imkoniyatdan unumli foydalanadi. Ahmad Sirhindi insonlarning hayotini mazmunli o'tkazish borasida ham o'z qarashlarini bayon qilgan. Unda inson ko'nglida pushaymonlik qolmasligi uchun har daqiqani qadrlashi, shariatga to'g'ri keladigan solih amallarni qilishga harakat qilishi lozimligi ta'kidlangan. Bugun dam olish vaqti emas, harakat vaqti ekanligi, dam olish harakatning mevasi bo'lib, amallar hali oldindaligi, ishlayotgan vaqtda dam olishga borish niholni yo'q qilish va uni quritish bilan barobarligi ifodalangan.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Sirhindi "Maktubot" asari tasavvuf asoslarini mukammal o'rgatuvchi manba sifatida alohida o'rin tutadi. E'tiqod, poklik, insonga xos ma'naviy-axloqiy xislatlar naqshbandiya tariqatining asosiy mavzulari sifatida ifodalangan bu asar – nafaqat o'sha davr, balki bugungi kun uchun ham dasturulamal vazifasini o'taydi. Asar tasavvufga xos go'zal axloq, komil inson, nafs tarbiyasi, vatanparvarlik kabi yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda, ayniqsa yosh avlodni turli asossiz g'oyalar va maslaklarga adashib kirib qolishining oldini olishda muhim manba hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Muhammad Hoshim Keshmiy. Barakot (Zubdatu-l-maqomot).– Istanbul: Hakikat Kitabevi, 2011. – 416 b.
2. Ahmet Cahid Haksever. The Introspective Criticism in Maktubat of Imam Rabbani Ahmad Faroq Al-Sarhandi // Hitit Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergi. – Istanbul, 2014. – S. 197-205.
3. Görmez, “Açılış Konuşmaları I”, Uluslararası İmâm-ı Rabbânî Sempozyumu Tebliğleri, – Istanbul: Hüdâyî Vakfı, 2018. – S. 10.
4. Necip Fazıl Kısakürek, Büyük Doğu, Temmuz. – Istanbul: Toker, 1967. – S. 2.
5. İmâm-ı Rabbânî, Mektûbât Tercemesi (tarjimon. Hüseyin Hilmi Işık), Cild I. – Istanbul: Hakikat Kitâbevi, 2014. – S. 3.
6. Muhammad Masrur Ahmad, Jovid Iqbol Mazhariy, Iqbol Ahmad Axtar Qodiriy. Jahoni Imom Rabboniy mujaddidi alfi soniy shayx Ahmad Sirhindiy // Muhammad Bobirbek Mattoliy. Taxriji ahadis. – Karachi: Imomi Rabboni favoidi yashin, 2005. T. 2. – B. 95.
7. Ahmad al-Foruqiy as-Sirhindiy. Maktuboti Imom Rabboniy // Rahmi Tura nashrga tayyorlagan. T. 1. – Istanbul: Yasin Yayinevi, 2006. – B. 25.
8. Юлдашходжаев Х. Тариқатчиликнинг замонавий кўринишлари. – Тошкент: ТИУ, 2010. – Б. 17.
9. Ҳожи Абдулғафур Раззоқ Бухорий. Тариқатга йўлланма (Нақшбандия таълимоти асосида). – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2003. – Б. 58.
10. Ahmad al-Foruqiy as-Sirhindiy. Maktuboti Imom Rabboniy // Rahmi Tura nashrga tayyorlagan. T. 2. – Istanbul: Yasin Yayinevi, 2006. – B. 41.